

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**REYRNAZAROV YERNAZAR NURJAMIYEVICH**

**KOGNITIV RADIOALOQA TIZIMLARIDA CHASTOTA SPEKTRINI  
SAMARALI BOSHQARISH USULI VA MODELLARI**

**05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va  
qurilmalari. Mobil, tolaoptik aloqa tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Reynazarov Yernazar Nurjamiyevich**

Kognitiv radioaloqa tizimlarida chastota spektrini samarali boshqarish usuli va modellari ..... 3

**Рейпназаров Ерназар Нуржамиевич**

Метод и модели эффективного управления частотным спектром в системах когнитивной радиосвязи ..... 21

**Reynazarov Ernazar Nurjamiyevich**

Method and models of effective management of the frequency spectrum in cognitive radio communication systems ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**REYRNAZAROV YERNAZAR NURJAMIYEVICH**

**KOGNITIV RADIOALOQA TIZIMLARIDA CHASTOTA SPEKTRINI  
SAMARALI BOSHQARISH USULI VA MODELLARI**

**05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va  
qurilmalari. Mobil, tola-optik aloqa tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3937 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xujamatov Xalimjon Ergashevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Davronbekov Dilmurod Abdujalilovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Djabborova Muattar Anvarjonovna**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15; e-mail: [tuit@tuit.uz](mailto:tuit@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**B.Sh.Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**M.S.Saitkamolov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori

**D.Y.Irgasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda radiochastota spektridan foydalanish samaradorligini oshirish, aloqa vositalarida dasturiy boshqarish tamoyillari, axborotni qayta ishlashning ilg'or texnologiyalari, radiochastota spektriga kirishni boshqarishning mavjud qurilmalarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan ma'lum bir aloqa operatoriga litsenziyalash asosida ajratilgan radiochastota spektri polosasini ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish uchun vaqtincha egallashga qodir bo'lgan texnik vositalari hamda apparat-dasturiy ta'minotini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda ham kognitiv radioaloqa tizimlarida radiochastota spektrining egallanmagan qismlarini ishonchli va samarali aniqlashning yangi texnika, texnologiya hamda usullarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Jahonda simsiz tarmoqlarning kanal resursini taqsimlash va kognitiv radioaloqa tizimlarida chastota spektri bo'yicha qaror qabul qilish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu sohada, jumladan kognitiv sikl asosida radiochastota spektridan ikkilamchi foydalanish uchun radioaloqa tizimlarining kanallarni egallash va bo'shatish, spektrni egallanmagan qismlarini aniqlash, signallarga shovqin qo'shish va so'ndirish jarayonlarini real vaqt mobaynida tadqiq qilish hamda spektrni ko'p kanalli zondlash hamda radiochastotadan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi modellarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga birlamchi tarmoqqa xalaqitlarni kamaytirish imkonini beruvchi ikkita chegaraviy qiymat va mashinali o'qitishga asoslangan hamda radiochastota spektrini zondlash hamda kanal holati bo'yicha qaror qabul qilish tizimining aniqligini oshirish imkonini beruvchi usul va modellarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanmoqda.

Respublikamizda telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirishga, simsiz va mobil aloqa qamrovini oshirish hamda aloqa sifatini yaxshilashga va radiochastota spektridan samarali foydalanishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarini va magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish”<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, shuningdek kognitiv radio tarmoqda spektrni zondlash jarayonini tadqiq qilish model va algoritmlarini, tarmoqda spektr holati bo'yicha qaror qabul qilishning samarador usuli hamda modellarini, spektrni zondlash modeli va algoritmini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni

to'g'risida"gi Farmonlari, 2013-yil 22-oktabrdagi PQ-2053-son "Radiochastota spektrini boshqarishni tashkil qilish va foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-son "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-son "O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2020-yil 22-dekabrda 801-son "Radiochastota spektridan foydalanish sohasida ruxsat etish hamda radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Kognitiv radioaloqa tizimlarida birlamchi foydalanuvchilarga xalaqitlarni maksimal kamaytirgan, ularning ishonchligini yuqori darajada ta'minlagan holda ikkilamchi foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish tamoyillari, ularda qo'llanilayotgan radiochastota spektrini zondlash, boshqarish va ulashish, shu jumladan, spektrni tahlil qilish hamda holati bo'yicha qaror qabul qilish muammolarining yechimlari, kognitiv tarmoq tugunlari o'rtasida o'lgan parametrlar bo'yicha axborotlarni qabul qilish, ishlov berish va uzatish jarayonlarining tadqiqi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ushbu tadqiqot yo'nalishiga Y.Ch. Liang, D. Das, J. Mitola, S. Haykin, E. Kitcher, M.H. Rehmani, A.Yu. Grebeshkov, V.V. Butenko, A.E. Kucheryayev va boshqa taniqli xorijiy olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Shuningdek belgilangan muammoni tadqiq qilish masalalariga respublikamiz olimlari D.A. Davronbekov, U.B. Amirsaidov, Yu.V. Pisetskiy, D.N. Likonsev, V.I. Praxov, Sh.U.Pulatov, A.Sh. Shaxobiddinov, A.A. Nigmanov, X.E. Xujamatov va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Kognitiv radioaloqa tizimlarida kanal resurslarini taqsimlashning mavjud usullari, qoida tariqasida, birlamchi foydalanuvchining ishga tushirilishi aniqlanganda ishchi kanalni so'zsiz bo'shatishni ta'minlamaydi. Hozirgi vaqtgacha ikkilamchi foydalanuvchining ishlashi birlamchi foydalanuvchi zondlash momentlari orasidagi vaqt oralig'ida ishlay boshlashini hisobga olgan holda batafsil o'rganilmagan. Bunda ikkilamchi foydalanuvchi uzatish muhitiga kirishni boshqarish doirasida ma'lumotni qabul qilish va uzatish jarayonini davom ettirish uchun zudlik bilan boshqa mavjud kanalga o'tishi kerak. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'rib chiqilayotgan sharoitlarda radiochastota kanal resurslarini taqsimlashning belgilangan muammosi, shu jumladan mavjud kanal resurslarini aniqlash usullarini takomillashtirish hisobidan ikkilamchi foydalanuvchining ruxsat

etilgan kanalga kirish va aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun tanlangan uzatish kanalining sifatini baholash muammolari batafsil o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy tadqiqot rejasining №Uzb-Ind-2021-94 "CRN-ga asoslangan IoT-dan foydalaniladigan "Aqlli shahar" tizimlarida energiya tejamkor aloqa va ma'lumotlar oqimi" (2021-2023) xalqaro qo'shma loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kognitiv radioaloqa tizimida chastota spektrini samarali boshqarish usuli va modellarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

kognitiv radioaloqa tizimlarining ishlash tamoyillari va spektrni zondlash usullarini tahlil qilish;

kognitiv radioaloqa tizimlarining ishlash jarayonlarini real vaqt mobaynida tadqiq qilish imkonini beruvchi model ishlab chiqish;

kognitiv radioaloqa tizimlari signallarini zondlash chegaraviy qiymatini moslashuvchan sozlashni amalga oshiruvchi model ishlab chiqish;

kognitiv radioaloqa tizimida spektr holati bo'yicha qaror qabul qilishning birlamchi aloqa tizimiga xalaqitlarni kamaytirish imkonini beruvchi usulini ishlab chiqish;

kognitiv radioaloqa tizimida radiochastota spektrini zondlash hamda spektr holati bo'yicha qaror qabul qilish aniqligini oshiruvchi model ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida kognitiv radioaloqa tizimida spektrni zondlash hamda spektr bo'yicha qaror qabul qilish apparat va dasturiy vositalari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** kognitiv radioaloqa tizimida spektrni moslashuvchan zondlash va sun'iy intellekt yordamida spektr bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida signallarni uzatish nazariyasi, imitatsion modellashtirish, mashinali o'qitish, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish, ko'p kriteriyali qaror qabul qilish, Bayes tarmoqlari, ssenariy tahlil va ordinal ustuvor yondashuv usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kognitiv sikl asosida radiochastota spektridan ikkilamchi foydalanish uchun radioaloqa tizimlarining kanallarni egallash va bo'shatish, spektrni egallanmagan qismlarini aniqlash, signallarga shovqin qo'shish va so'ndirish jarayonlarini real vaqt mobaynida tadqiq qilish hamda spektrni ko'p kanalli zondlash imkonini beruvchi model ishlab chiqilgan;

radiochastotadan foydalanish samaradorligini oshirish uchun noto'g'ri signal ehtimolligi va teskari Q funksiya asosida kognitiv radioaloqa tizimlari signallarini zondlash chegaraviy qiymatini moslashuvchan sozlash imkonini taqdim etuvchi model ishlab chiqilgan;

kognitiv radioaloqa tizimlarida spektr holati bo'yicha samarali qaror qabul qilish va birlamchi tarmoqqa xalaqitlarni kamaytirish imkonini beruvchi ikkita chegaraviy qiymat va mashinali o'qitishga asoslangan ikki bosqichli usul ishlab chiqilgan;

mashinali o'qitish algoritmlari asosida radiochastota spektrini zondlash hamda kanal holati bo'yicha ikkilik tasniflagichning qaror qabul qilish aniqligini oshirish imkonini beruvchi gibril model ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kognitiv radioaloqa tizimlarining ishlash jarayonini tadqiq qilish dasturi yaratilgan;

kognitiv radioaloqa tizimlarida signallarni zondlash chegaraviy qiymatini samarali aniqlash dasturi yaratilgan;

spektrni zondlash va tahlil qilish apparat-dasturiy vositasi loyihalashtirilgan hamda imitatsion modeli ishlab chiqilgan;

spektr holati bo'yicha qaror qabul qilish uchun bilimlar bazasi to'plangan va mashinali o'qitishga asoslangan dastur yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kognitiv radioaloqa tizimlarida radiochastota spektri holati bo'yicha qaror qabul qilish usuli, spektrni zondlash va tahlil qilish modeli, qaror qabul qilish modeli va algoritmi ishlab chiqilganligi hamda olingan tadqiqotlar natijalari umumqabul qilingan mezonlar asosida qiyosiy solishtirish orqali izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kognitiv sikl asosida radioaloqa tizimlarining ishlash jarayonini real vaqt mobaynida tadqiq qilish va signallarini zondlash chegaraviy qiymatini moslashuvchan sozlashni amalga oshiruvchi modellari, ikkita chegaraviy qiymat va mashinali o'qitish asosida spektr holati bo'yicha qaror qabul qilishning birlamchi aloqa tizimiga xalaqitlarni kamaytirish imkonini beruvchi usuli, mashinali o'qitish asosida radiochastota spektrini zondlash hamda spektr holati bo'yicha qaror qabul qilish aniqligini oshiruvchi modeli ishlab chiqilganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kognitiv radioaloqa tizimlari ishlash jarayonini tadqiq qilish va signallarni zondlash chegaraviy qiymatini aniqlash dasturlari yaratilganligi, spektrni zondlash va tahlil qilish apparat-dasturiy vositasi loyihalashtirilganligi va imitatsion modeli ishlab chiqilganligi, spektr bo'yicha qaror qabul qilish uchun bilimlar bazasi to'planganligi va mashinali o'qitishga asoslangan dastur ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kognitiv radioaloqa tizimlarida chastota spektrini samarali boshqarish usuli va modellari bo'yicha olingan natijalar asosida:

mashinali o'qitish algoritmlari asosida radiochastota spektrini zondlash hamda kanal holati bo'yicha ikkilik tasniflagichning qaror qabul qilish aniqligini oshirish imkonini beruvchi gibril model O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tasarrufidagi korxonalarda, xususan, Elektromagnit moslashuv markazi DUKga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 34-8/4933-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida ajratilgan radiochastota polosalarida litsenziyalanmagan foydalanuvchi qurilmalarini aniqlash samaradorligini 10-15 % gacha oshirish, simsiz aloqa xizmatlariga taqsimlangan polosalardagi radiochastotalarning o'zlashtirilishini baholash aniqligini 0,9995 gacha oshirish imkoni yaratilgan;

kognitiv radioaloqa tizimlarida spektr holati bo'yicha samarali qaror qabul qilish va birlamchi tarmoqqa xalaqitlarni kamaytirish imkonini beruvchi ikkita chegaraviy qiymat va mashinali o'qitishga asoslangan ikki bosqichli usul "UNICON.UZ" DUKga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 34-8/4933-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida aloqa xizmatlariga taqsimlangan polosalardagi radiochastota spektridan foydalanishni tahlil qilish, radiospektrning bandligi, hamda alohida tarmoq va radiostansiyalar to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish holatini yaxshilash, simsiz aloqa xizmatlariga taqsimlangan polosalardagi radiochastotalarning o'zlashtirishini baholash aniqligini 0,9995 gacha oshirish imkoni yaratilgan;

kognitiv sikl asosida radiochastota spektridan ikkilamchi foydalanish uchun radioaloqa tizimlarining kanallarni egallash va bo'shatish, spektrni egallanmagan qismlarini aniqlash, signallarga shovqin qo'shish va so'ndirish jarayonlarini real vaqt mobaynida tadqiq qilish hamda spektrni ko'p kanalli zondlash imkonini beruvchi model hamda radiochastotadan foydalanish samaradorligini oshirish uchun noto'g'ri signal ehtimolligi va teskari Q funksiya asosida kognitiv radioaloqa tizimlari signallarini zondlash chegaraviy qiymatini moslashuvchan sozlash imkonini taqdim etuvchi model "ONIX GROUP" MChJga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 34-8/4933-son ma'lumotnomasi). Natijada videokameralar va sensorlar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar oqimlari simsiz tarmoq orqali litsenziyalangan radiochastota polosalarining asosiy foydalanuvchilar tomonidan egallanmagan qismlari orqali almashishga hamda modellarni Aqlli uy tizimining aloqa sathida joriy qilish orqali radiochastota spektridan foydalanish samaradorligini 5-8 % gacha oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy ishlar, ulardan 16 ta maqolalar O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan 13 ta xorijiy, 3 ta respublika miqyosidagi jurnallarda chop etilgan, hamda 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kognitiv radioaloqa tizimlarining ishlash tamoyillari va spektrni zondlash usullarining tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida dinamik spektrga kirish usullari va kognitiv radioaloqa tizimlari (KRAT)ning ishlash tamoyillari, asosiy funksiyalari va spektrni boshqarish hamda zondlash usullari tahlil qilingan, shuningdek, masalaning qo‘yilishi bayon qilingan.

Hozirgi vaqtda radiochastota spektri (RChS)ning ba’zi diapazonlaridan haddan tashqari ko‘p foydalanilib, shuningdek, ba’zi diapazonlarda spektrning katta qismi ishlatilmayotganligi sababli spektrni tayinlashning an’anaviy siyosati samarasiz bo‘lib qolmoqda hamda spektrdan foydalanishga bo‘lgan yangi talablarga javob bera olmayapti. Bu muammoni ilg‘or modulyatsiya va kodlash usullari, ko‘p antennali usullar, ulanishlarni moslashtirish hamda boshqa yangi texnologiyalar yordamida to‘liq yechib bo‘lmaydi. Chunki, ushbu texnologiyalar yordamida radiokanal sig‘imini faqat ma’lum bir chegaragacha oshirish imkonini beradi. Ushbu muammoni samarali hal qilish uchun spektrga dinamik kirish texnologiyalarini, xususan kognitiv radioaloqa tizimlari va tarmoqlarini amaliyotga joriy qilish zarur. Kognitiv radioaloqa tarmoq konsepsiyasi birlamchi foydalanuvchilar tomonidan joriy vaqtda ishlatilmayotgan RChSning bo‘sh joylarini ikkilamchi foydalanuvchilar aloqasi uchun ishlatishga asoslanganligi sababli, ushbu turdagi tarmoqqa quyidagi asosiy ikkita talab qo‘yiladi: 1) birlamchi foydalanuvchilarning ishlashiga xalaqit qilmaslik va 2) ikkilamchi foydalanuvchi uchun xizmat ko‘rsatish sifatini ta’minlash. Buning uchun KRAT an’anaviy simsiz aloqa tizimiga nisbatan spektrni zondlash, spektrni boshqarish, spektrni ulashish va spektrdan foydalanish mobilligini ta’minlash kabi qo‘shimcha funksiyalarni samarali bajara olishi talab etiladi.


Kognitiv radioaloqa tizimlarida ikkilamchi foydalanuvchilar birlamchi foydalanuvchilarga xalaqit bermasligi uchun, ularning mavjudligini ishonchli tarzda aniqlash murakkab vazifa hisoblanadi. Bu spektrni zondlash yordamida amalga oshiriladi. Spektrni zondlashda eng keng qo‘llaniladigan usullar – energiyani aniqlash, siklostatsionar xususiyat, moslashtirilgan filtrlash va kovariatsiya matritsasiga asoslangan aniqlash usullari hisoblanadi. Ular orasida, amalga oshirish osonligi va kam xarajat talab qilishi, hamda birlamchi signal haqida oldindan ma’lumotni talab qilmasligi sababli energiyani aniqlash usullari ekspluatatsiyada keng qo‘llaniladi. Kognitiv radio tarmoqlarida RChS resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashda energiya detektorini asosida spektrni hamkorlikda aniqlash muhim rol o‘ynaydi. Hamkorlikda zondlash usullarining har xil model va algoritmlari taklif qilingan bo‘lib, ularning ishlashi asosan – signalni to‘g‘ri aniqlash ehtimolligi, noto‘g‘ri signal ehtimolligi, energiya samaradorligi hamda o‘tkazish qobiliyati kabi ko‘rsatkichlar yordamida baholanadi. Bunda, energiyani aniqlashning ikki chegaraviy qiymatni o‘rnatish hamda energetik qiymatlarni baholashda mashinali o‘qitishni qo‘llashga asoslangan gibril usul va modellari yuqori samara berishi mumkin.

Spektr holati bo‘yicha qaror qabul qilishda, spektrni zondlash yordamida olingan test statistikasi ikkita sinfdan biriga mansub bo‘ladi: 1) signal mavjud emas ya’ni  $H_0$  sinfi va 2) signal mavjud ya’ni  $H_1$  sinfi. Ideal holatda tasniflagichda agar faqat shovqin signali kuzatilgan bo‘lsa  $H_0$  sinfini, shovqin signali bilan birga

foydalanuvchi signali kuzatilgan bo'lsa H1 sinfni ko'rsatishi kerak. Buning uchun olingan test statistikasi chegaraviy qiymat bilan taqqoslanadi va qaror qabul qilinadi. Bunda, yoquri aniqlikda qaror qabul qilish uchun signalni to'g'ri aniqlash ehtimolligini oshirgan holda, noto'g'ri signal ehtimolligini kamaytirish talab qilinadi.

Dissertatsiyaning **“Kognitiv radioaloqa tizimida spektrni zondlash jarayonlarini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobi KRATda spektrni zondlashning signal energiyasini aniqlashga asoslangan usullari, jumladan, bitta chegaraviy qiymatli, moslashuvchan chegaraviy qiymatli va ikkita chegaraviy qiymatli usullarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.


KRATning ishlash jarayonini tadqiq qilish uchun tizimning zaruriy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan model talab qilinadi. Tadqiqot doirasida KRATni eksperimental tadqiq qilish uchun soddalashtirilgan model ishlab chiqilgan (1-rasm). Ushbu model bo'yicha kognitiv radio tizimning ishlash jarayoni shartli ravishda quyidagi qismlarga ajratilgan: kanallarni egallash; spektr tuynuklarini aniqlash; kanallarni bo'shatish; signallarga shovqin qo'shish; signallarni so'ndirish.




**1-rasm. Kognitiv radioaloqa tizimini tadqiq qilish modelining blok diagrammasi**

Kognitiv radio bilan bog'liq eksperimental simulyatsiya usullari juda kam amalga oshirilgan, shuning uchun ushbu tadqiqot doirasida model konfiguratsiyasining soddaligi, simulyatsiya natijalarini vizuallashtirish va umumlashtirishning osonligi, hamda eng asosiysi, spektrni boshqarish hamda tahlil qilishda ma'lumotlarni sintez qilish va signalni qayta ishlashning bir nechta modullarini o'z ichiga olganligi uchun Matlab modellashtirish muhiti yordamida amalga oshirilgan (2-rasm). Ushbu modelda KRATi turli xil chastotali kanalga ega va har bir foydalanuvchiga ma'lum chastota diapazoni tayinlangan. Dasturni ishga tushirganimizdan so'ng, u foydalanuvchi qo'shishni va unga o'sish tartibida ma'lum bir chastota polosasini belgilashni so'raydi hamda ushbu modelni boshqarish "Buyruqlar oynasi" yordamida amalga oshiriladi.


Simulyatsiya natijasida chastota spektriga asosiy foydalanuvchilarni tayinlash; spektr bo'sh polosalariga ikkilamchi foydalanuvchi tayinlash; foydalanuvchi signallariga shovqin qo'shish; foydalanuvchi signallarini so'ndirish; va kanalni bo'shatish holatlarini o'rganish hamda ushbu jarayonlarni tasvirlovchi quvvat-spektral zichlik grafiklarini olish mumkin.




a) Spektrga foydalanuvchi tayinlash



c) Quvvat spektral zichligi egri chizig'i



b) Shovqin qo'shish va signallarni so'ndirish



d) Spektrga yangi foydalanuvchi qo'shilishi

## 2-rasm. KRATni tadqiq qilish modelining buyruqlar oynasi va natijalari

KRATda birlamchi foydalanuvchini aniqlash uchun foydalaniladigan usullardan biri bu bitta chegaraviy qiymatli energiyani aniqlash usulidir. Energiyani aniqlash algoritmi ma'lum bir vaqt ichida signal energiyasini hisoblash va asosiy foydalanuvchining mavjudligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun uni oldindan belgilangan chegaraviy qiymat bilan solishtirishni anglatadi. Energiyani aniqlashning birinchi bosqichi asosiy foydalanuvchining qabul qilingan quvvati  $y(t)$  ni baholashdir. Qabul qilingan signalning quvvatini hisoblash uchun polosa kengligi  $w$  bo'lgan polosa filtrining chiqishi diskretlanadi va  $T$  oralig'ida integrallanadi. Shuningdek, natijani aniqlash uchun integral qiymat  $\lambda$  chegaraviy qiymat bilan taqqoslanadi, bu esa o'z navbatida energiyani aniqlash usuli uchun muhim asosiy parametr hisoblanadi. Bu noto'g'ri signal yoki to'g'ri aniqlash ehtimolligi kabi maqsadli ishlash ko'rsatkichi bilan aniqlanishi mumkin. Energiyani aniqlash uchun yagona chegaraviy qiymat usuli (1) ifoda orqali keltirilgan.

$$y(n) = \begin{cases} w(n) \rightarrow H_0 \\ s(n) + w(n) \rightarrow H_1 \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda:  $y(n)$  – kognitiv radioda qabul qilingan signalning  $n$ -namunasi;  $w(n)$  – nolga teng o'rtacha qiymat va variatsiyasi  $\sigma_w^2$  ga teng oq Gauss shovqinini;  $s(n)$  – asosiy foydalanuvchi tomonidan uzatilgan nolga teng o'rtacha qiymat va variatsiyasi  $\sigma_s^2$  ga teng signal;  $H_0$  – egallanmagan spektr;  $H_1$  – egallangan spektr.

Shuningdek, signal shovqin nisbati  $\gamma = \sigma_s^2 / \sigma_w^2$  formula orqali ifodalanadi. Agar, kognitiv radioda bitta chegaraviy qiymatli energiya detektorini qo'llansa, test statistikasi (signal energiyasi) quyidagicha ifodalanadi:

$$T_E(y) = \frac{1}{M} \sum_{N=1}^M |y(n)|^2 \quad (2)$$

bu yerda:  $M$  – namunalar soni.  $M$  ning katta qiymatlari uchun ( $M > 10$ ) test statistikasi  $T_E(y)$  Markaziy limit nazariyasi bo'yicha Gauss taqsimotiga taxminan mos keluvchi

ikkita gipotezaga bo‘ysinadi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$T_E(y) : \begin{cases} N\left(\sigma_w^2, \frac{2}{M}\sigma_w^4\right) & H_0 \\ N\left((1+\gamma)\sigma_w^2, \frac{2}{M}(1+2\gamma)\sigma_w^4\right) & H_1 \end{cases} \quad (3)$$

Berilgan chegaraviy qiymat  $\lambda$  uchun, agar  $T_E(y) \geq \lambda$  bo‘lganda, birlamchi foydalanuvchi mavjud emas, aks holda birlamchi foydalanuvchi mavjud deb baholanadi. Noto‘g‘ri signal  $P_{fa}$  va to‘g‘ri aniqlash  $P_d$  ehtimolliklari quyidagi ifodalar orqali hisoblanishi mumkin:

$$P_f = P_r(T_E(y) > \lambda | H_0) = Q\left(\left(\frac{\lambda}{\sigma_w^2} - 1\right)\sqrt{\frac{M}{2}}\right) \quad (4)$$

$$P_d = P_r(T_E(y) > \lambda | H_1) = Q\left(\left(\frac{\lambda}{\sigma_w^2} - \gamma - 1\right)\sqrt{\frac{M}{2(2\gamma+1)}}\right) \quad (5)$$

bu yerda:  $Q(x)$  – o‘zgaruvchan standart Gauss tasodifiysining qo‘shimcha kumulativ taqsimot funksiyasi.


(4) tenglamadan chegaraviy qiymat  $\lambda$  quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$\lambda = Q^{-1}(P_f)\sqrt{2M}\sigma_w^2 + M\sigma_w^2 \quad (6)$$

KRATda spektrni zondlashda energiyani aniqlash usulini tadqiq qilish modeli Matlab modellashtirish muhitida tuzilgan. Ushbu model, energiyani aniqlash chegaraviy qiymatini noto‘g‘ri signal ehtimolligiga bog‘liq baholash imkoniyatini beradi. Ushbu modelni quyidagi asosiy to‘rtta qadam bilan amalga oshiriladi: 1) asosiy foydalanuvchi mavjud emas deb hisoblanadi. Bunda tasodifiy funksiya yordamida shovqin generatsiya qilinadi hamda qabul qilingan signal faqat shovqindan iborat bo‘ladi; 2) agar faqat shovqinning energiyasi chegaraviy qiymatdan yuqori bo‘lsa, u noto‘g‘ri signalga mos keladi; 3) ushbu stsenariy  $N$  ta iteratsiyalar uchun ishga tushiriladi; 4) chegaraviy qiymatning noto‘g‘ri signal ehtimolligiga bog‘liq tavsifi olinadi hamda chegaraviy qiymat baholanadi.


Ushbu modelni amalga oshirish algoritmi (3-rasm) va modelni Matlab modellashtirish muhiti yordamida amalga oshirish natijasida olingan energiyani noto‘g‘ri aniqlash ehtimolligining chegaraviy qiymatga bog‘liqlik tavsifi (4-rasm) keltirilgan. Ushbu xarakteristikadan shuni ko‘rish mumkinki, foydali signalni to‘g‘ri aniqlash ehtimolligini oshirish maqsadida chegaraviy qiymatni kamaytirish noto‘g‘ri signal ehtimolligini oshib ketishiga olib keladi. Shuningdek, analitik ifoda va simulyatsiya yordamida olingan natijalar bir-biriga yaqin qiymatlarga egaligi tuzilgan model yordamida amalga oshirilgan simulyatsiyani adekvatligini isbotlaydi.

Bitta chegaraviy qiymatli energiyani aniqlash usuli shovqinbardoshlikning pastligi, zaif signallarni aniqlay olmasligi, moslashish qobiliyatining yo‘qligi va uzluksiz uzatishni aniqlashdagi kamchiliklari sababli kognitiv radio tarmoqlarida foydalanish uchun cheklaydi. Shu sababli, KRAT energiya detektori uchun moslashuvchan chegaraviy qiymatli algoritmlar taklif qilingan bo‘lib, unda chegaraviy qiymat kanalidagi shovqin darajasiga qarab sozlanadi. Chegaraviy qiymat ma’lum bir vaqt intervalida hisoblangan shovqin quvvatiga qarab yangilanadi.



**3-rasm. Energiyani aniqlash chegaraviy qiymatini topish bo'yicha eksperimental modelni amalga oshirish algoritmi**

Ushbu algoritm past signal shovqin nisbatli muhitlarda belgilangan bitta chegaraviy qiymatli energiya detektoriga qaraganda yaxshiroq ishlaydi, lekin u ko'proq hisoblash resurslarini talab qiladi. Moslashuvchan chegaraviy qiymatli algoritmlarni qo'llash energiya detektorining ishonchliligini oshiradi va shu bilan uning noto'g'ri aniqlash ehtimolligi hamda noto'g'ri signal ehtimolligi nuqtai nazaridan ish faoliyatini yaxshilaydi.



**4-rasm. Energiyani aniqlash chegaraviy qiymati (nazariy va eksperimental)**

KRATda aloqa trafiginini kamaytirish maqsadida energiyani aniqlash uchun ikkita chegaraviy qiymatli zondlash usuli taklif qilingan. Bunda, agar  $X > \lambda_2$  dan ortiq bo'lsa  $H_1$  gipoteza,  $\lambda_1$  dan kam bo'lsa  $H_0$  gipoteza to'g'ri, hamda kuzatilgan energiya ikkita chegaraviy qiymat o'rtasida (noaniq hudud) joylashgan bo'lsa, ya'ni  $\lambda_1 < X < \lambda_2$ , hech qanday qaror qabul qilinmaydi va kognitiv radio yana zondlash fazasiga qaytadi.

(6) ifoda orqali  $\lambda_1$  va  $\lambda_2$  chegaraviy qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\lambda_1 = (1 - \rho)\lambda \quad (7)$$

$$\lambda_2 = (1 + \rho)\lambda \quad (8)$$

bu yerda:  $\rho$  – noaniqlik parametridir.

Ikkita chegaraviy qiymatli energiyani aniqlash orqali zondlash usulida qabul qilingan signal chegaraviy qiymatlar bilan taqqoslangandan so'ng qaror qabul qilishning imkoni bo'lmasa, ya'ni signal noaniq hududda joylashgan bo'lsa, kognitiv qurilma ma'lum bir vaqt intervalidan keyin ushbu chastota kanalini zondlashni qayta amalga oshiradi. Shuningdek, kooperativ qaror qabul qilishga asoslangan ikkita chegaraviy qiymatdan foydalanadigan zondlash usuli ham taklif qilingan. Yuqoridagilardan farqli ravishda, ushbu usul KRATning aniqlash qobiliyatini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Bunda energiya detektori ikkita chegaraviy qiymatga ega bo'ladi. Har bir ikkilamchi foydalanuvchi spektrni alohida zondlash uchun energiyani aniqlashni amalga oshiradi. Shundan so'ng lokal qarorlar qabul qilinadi, farqli jihati, agar signal energiyasining kuzatuv qiymatlari noaniq hududda joylashgan bo'lsa birlashtirish markaziga ushbu qiymatlar uzatiladi hamda birlashtirish markazi ma'lum bir algoritmlar asosida asosiy foydalanuvchi mavjud yoki yo'qligi haqida yakuniy qaror qabul qiladi.


Ikkilamchi tugunlardan birining ishlamay qolishi va signalning so'nish muammolarini bartaraf etish uchun ushbu usul yaxshi samara berishi isbotlangan. Har bir ikkilamchi foydalanuvchi o'zining lokal qarorini birlashtirish markaziga yuboradi. Keyin har bir qaror natijasi ma'lum birlashtirish qoidalari, ya'ni yumshoq, qattiq, gibril va boshqa qoidalar ostida birlashtiriladi. Ikkita chegaraviy qiymatli energiya detektoriga asoslangan YOKI birlashtirish qoidasi bo'yicha kooperativ zondlash usuli uchun to'g'ri aniqlanish ehtimolligi ( $P_d$ ) va noto'g'ri signal ehtimolligi ( $P_f$ ) quyidagicha ifodalanadi:

$$P_d = 1 - \prod_{i=1}^K (1 - P_{di}) \quad (9)$$

$$P_f = 1 - \prod_{i=1}^K (1 - P_{fi}) \quad (10)$$

bu yerda:  $P_{di}$  va  $P_{fi}$  – mos ravishda  $i$ -chi ikkilamchi foydalanuvchining to'g'ri aniqlash ehtimolligi va noto'g'ri signal ehtimolligi;  $K$  – spektrni kooperativ zondlashda ishtirok etuvchi kognitiv foydalanuvchilar soni.

Yuqoridagi usullarning qiyosiy samaradorligini to'g'ri aniqlash ehtimolligi ( $P_d$ ) va noto'g'ri signal ehtimolligi ( $P_{fa}$ ) bo'yicha baholangan. Bunda baholash natijasi Matlab modellash muhitida qabul qilgichning ishchi xarakteristikasi egri chizig'i yordamida tasvirlangan (5-rasm).



**5-rasm. Radiochastota spektrini zondlashning energiya detektoriga asoslangan usullarini qiyosiy baholash grafigi**

Natijalar shuni ko'rsatdiki, moslashuvchan chegaraviy qiymatli va ikkita chegaraviy qiymatli energiya detektorlari signal shovqin nisbati past bo'lgan muhitlarda belgilangan bitta chegaraviy qiymatli energiya detektoriga nisbatan mos ravishda 8 va 11% gacha yaxshiroq ishlaydi.

Dissertatsiyaning **“Kognitiv radioaloqa tizimida spektr holati bo'yicha qaror qabul qilish usuli va modellari”** deb nomlangan uchinchi bobi kognitiv radioaloqa tizimida chastota spektrini samarali boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan usul va modellarni bayon qilishga, jumladan, kognitiv radioaloqa tizimida spektr holati bo'yicha qaror qabul qilishning ikkita chegaraviy qiymatli va mashinali o'qitishga asoslangan samarador usuli, spektrni zondlash, spektr holati bo'yicha qaror qabul qilish modellariga bag'ishlangan.

Kognitiv radio tarmoqda spektr holati bo'yicha qaror qabul qilishning ikkita chegaraviy qiymatli va mashinali o'qitishga asoslangan usuli kognitiv tarmoqda  $N$  kognitiv foydalanuvchi borligini nazarda tutib, bunda  $N$  musbat butun sonidir. Har bir kognitiv foydalanuvchi ikkita chegaraviy qiymatni o'rnatadi. Birinchidan, barcha kognitiv foydalanuvchilar energiyani lokal zondlashni amalga oshiradilar, ular orasida  $K$  foydalanuvchilar lokal qarorlar qabul qilishlari mumkin, qolgan  $N-K$  foydalanuvchilari esa ikkita chegaraviy qiymat oralig'idagi energiya qiymatlarini o'lchaydilar.

Keyin  $K$  kognitiv foydalanuvchilari orasidan aloqa o'rnatishga davogarlik qilayotgan ikkilamchi foydalanuvchilar lokal qaror natijalarini global qaror sifatida qabul qiladi. Lokal qaror qabul qilmagan  $N-K$  kognitiv foydalanuvchilar orasidagi aloqa o'rnatishga davogarlik qilayotgan ikkilamchi foydalanuvchilar esa global qaror qabul qilish markazidan qaror natijasini kutadi. Buning uchun, barcha kognitiv foydalanuvchilar zondlangan energiya qiymatlarini global qaror qabul qilish markaziga uzatishadi. U yerda qabul qilib olingan energetik qiymatlar klassifikatsiya masalasini yechishga mo'ljallangan olidindan o'qitilgan Mashinali o'qitish moduliga yo'naltiriladi. Ushbu usul qaror qabul qilish vaqtini qisqartiradi va aniqlash samaradorligini oshiradi. Yo'qorida ta'riflangan ikkita chegaraviy qiymatli kooperativ spektrni zondlash usuli, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:


1-bosqich: N ta kognitiv foydalanuvchi kognitiv tarmoqda teng taqsimlangan. Atrof-muhitning signal-shovqin nisbati bir xil, tarmoqdagi turli kognitiv foydalanuvchilar joriy spektrning energiya qiymatini olish uchun joriy spektr muhitining vakolatli foydalanuvchilari tomonidan energiyani zondlashni amalga oshiradi;

